

**IBORALAR VOSITASIDA QAHRAMON XARAKTERI VA MUNOSABATINI
OCHISH ("Kecha va kunduz") romani asosida**

Amrilloyeva Sevinch Anvarovna

Buxoro davlat universiteti

Filologiya va tillarni

o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi

1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA. *Mazkur maqola "Kecha va kunduz" romanidagi konnotativ ma'noni ya'ni frazologik jihatdan o'rganadi. Cho'lpon qalamiga mansub "Kecha va kunduz" romani misolida qahramonlarning o'ziga xos xarakteri iboralar vositasida tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *lingvistik tabiat, ibora, milliy qadriyat, ko'cha ma'no, badiiy nutq, realistik.*

ANNOTATION. *This article examines the connotative meaning, that is, the phraseological aspects in the novel "Night and Day". Using Cho'lpon's novel "Night and Day" as an example, the unique character traits of the protagonists are analyzed through the use of idiomatic expressions.*

Keywords: *linguistic nature, phrase, national values, figurative meaning, artistic speech, realistic.*

АННОТАЦИЯ. *В данной статье изучается коннотативное значение, то есть фразеологический аспект романа «Ночь и день». На примере романа Чулпона «Ночь и день» анализируются особенности характеров героев посредством устойчивых выражений.*

Ключевые слова: *лингвистическая природа, фразеологизм, национальные ценности, переносное значение, художественная речь, реалистичность.*

O'zbek adabiyotda "O'tkan kunlar" romaniga tenglashtirilgan roman-dialogiya "Kecha va kunduz" o'zbek xalqi tomonidan juda yaxshi kutib olindi. "Kecha va kunduz" asarini eshitmagan inson, bu roman yetib bormagan xonadon bo'lmasa kerak.

"Kecha va kunduz" romani xx asr o'zbek hayoti va oilaviy jarayonlar haqida yozilgan. Ushbu roman o'zbek adabiyotida o'zbek millatining milliy qadriyatlarini, urf - odatlarini yaqqol aks ettirish bilan birga o'sha davrdagi erkak va ayolning munosabati haqida ham aytib o'tiladi. Biz buni o'sha davrda erkaklar o'z ayollarini to'ng'ich farzandining ismi bilan chaqirishi, biroq Razzoq so'fi ayolini "Fitna" [1,9-bet] deb chaqirishi, jamiyatda bunday illatlar ham uchrashining yaqqol ifodasidir. Bundan tashqari, Cho'lpon "Kecha va kunduz" romanida har bir qahramonni o'ziga xos tarzda realistik tarzda ifodalagan.

Cho'lpon bu romanda qahramonni realistik jihatdan ifodalash bilan birgalikda qahramonlarning tashqi va ichki psixologik tomonlarini yoritib bergan. Bu orqali har o'quvchining romanni to'liq va mazmundor tarzda tushunishini ta'minlab turishga xizmat qiladi. Ammo, "Kecha va kunduz" romanining ikkinchi qismi ya'ni "Kunduz" qismi

yo'qolishi asarning sirli yakunining katta sabablaridan biri bo'ldi. Balki romanning "Kunduz" qismi yo'qolmaganda edi, o'zbek adabiyotining o'ziga xosligini, qahramonlarning kelajakdagi porloq ya'ni yorug' kunlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lar edik.

Badiiy nutqda iboralarning lingvistik tabiatiga oid nazariy asoslariga nazar tashaylaydigan bo'lsak, iboralar ya'ni frazologik birliklar bu ko'chma ma'noda qo'llanadigan, nafaqat nutqda balki badiiy nuqtqimizni tasirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi birikmalardir. Asosan, badiiy nutqda iboralarning lingvistik tabiatiga oid nazariy asoslar mavjud bo'lib, bu o'zbek adabiy nutqining frazeologiyasining rivojlanib, takomillashuvi sabab bo'ldi.

O'zbek frazeologiyasining yangi muvaffaqiyatlarga erishuvida B. Yo'ldosheva, Abdumurod va Abdug'ofur Mamatovlarning xizmati katta bo'ldi. [2,92-bet].

Bundan tashqari, iboralarning mazmun va strukturaviy xususiyatlari mavjud. Mazmun xususiyatiga keladigan bo'lsak, ko'chma ma'nolilik, Semantik ma'no ya'ni tushunchalarning yaxlitligi, hissiyotda oid, milliy va madaniy ma'no kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu jadvalda "Kecha va kunduz" romani misolida iboralarning mazmun mohiyati jihatidan qahramonlar nutqida qo'llangan iboralar yoritib berildi:

1-jadval.

"Kecha va kunduz" romanida iboralar

Ko'chma ma'nolilik	"Tili qisiq "	Razzoq so'fi tasviri muallif nutqidan[1,10-bet]
Semantik ma'no ya'ni tushuncha ma'nosi	"Tomiriga bolta chopmoq"	Umrinisabibi tilidan [1,38-bet]
Hissiyot bilan bog'liq	"Ko'ngillarni qitiqlay boshladi"	Muallif nutqidan tabiat tasviri [1,3-bet]
Milliy urf-odatiy ma'no	"Kechagi botgan quyoshday" unutildi	Muallif nutqidan Sultonga nisbatan aytilgan[1,106-bet]

Iboralarning strukturaviy turlariga esa, fe'l bilan ifodalagan,ot, sifatli iboralar, gap shaklidagi iboralar kiradi.

Asosan, ot, sifat, fe'l va boshqa so'z turkumlari ishtirok etadi hamda komponentlarning sintaktik birikuvi ham turli xil bo'ladi.[2,95-bet]

Yana bir muhim jihatlardan biri badiiy nutqda obraz yaratishning stillologik xususiyatlari ham mavjud bo'lib,bu orqali roman yoki badiiy asarlar o'quvchilarga bevosita ta'sir qiladi. Masalan, bu qahramonning quvonchini, iztirobini, qayg'u, hayratini ifodalaydi. Bunga misol qilib, "Kecha va kunduz" romanida Razzoq so'fi tilidan aytilgan"Tomdan tarasha tushgandek"iborasini aytishimiz mumkin.[1,72-bet]. Shubhasiz, asarda qahramonlar nutqida qo'llangan har bir ibora o'quvchiga motivatsion ruh bag'ishydi.Bu jihatlari bilan" Kecha va kunduz "romani insonni axloqiy - tarbiyaviy ruhda yetuk inson sifatida

tarbiyalaydi. Romanda qo'llangan har tushuncha insonga yecholmagan muammolarining yechimini berish bilan birga o'sha davr madaniyatining siyosiy - ijtimoiy jihatlariga nazar solish bilan bugungi hayot bilan ham solishtiradi.

Muallif har bir qahramon xarakterini ochishda realistik jihatdan yondashib, nutqiy birliklarning stilistik vazifasi haqida katta e'tibor qaratgan. Avvalo, stilistik vazifa deganda, roman qahramonlari nutqidagi har bir so'zning leksik, grammatik ma'nosini, qahramon kayfiyatini uning tiliga qo'llangan sheva, jargonlarini ko'rsatishga xizmat qiladi. Bu esa o'z o'rnida o'quvchiga zavq, romaniga bo'lgan qiziqishini uyg'otib mushohada qilishga undaydi. Masalan, Razzoq so'fi tilidan aytilgan, xotiniga nibatan "Fitna" so'zi [1,9-bet] milliy qadriyatlarga nisbatan "yomon illat" ekanligini ko'rsatadi. Bu orqali Cho'lpon jamiyatda yaxshi muomalaga ega bo'lgan insonlar bilan bir qatorda yomon illatlilar ham borligini ko'rsatib o'tadi.

Quyida ba'zi bir qahramonlar tilidan Razzoq so'fining boshqa xarakterlari ham ochib tasvirlangan :

Razzoq so'fi-jadidnamo bir hamshaharining deganidek, "ko'rgazmaga qo'yiladigan ajoyib mahluqlardan edi. [1,8-bet]

Asarda aytilishicha, ona qornidan salomat tushurgan Hamro ena quyidagi so'zlarni aytgan : "Aylanay mehmon, kimdan xafa bo'lib tushdingiz? Kim ozod berdi sizga? Qovog'ingizni ochsangiz-chi?! Bir kuling! Kulimsirang! Iljaying! [1,8-bet] Aytishlaricha, o'shanda kulmagan Razzoq so'fi keyin ham kulmay o'tdi.


Bu kabi tasvirlashlar asar insonni yuragiga kirib borish bilan bir qatorda qahramonlarni yaqindan tanishish imkoniyatini yaratadi. Asosan, romanning shu jihati ham o'quvchini o'ziga rom etadi.

Fikrimizni xulosalar ekanmiz, frazologik iboralarning o'zi nafaqat "Kecha va kunduz" romanida o'zgacha yoritilgan. Balki boshqa asarlardagi qahramonlarning nutqlarini o'zgacha ruhda yozilganligiga xizmat qilib kelmoqda. Bu asarlarda o'z aksini topish bilan birga kundalik hayotdagi nutqimizga ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, "Kecha va kunduz" romanidagi qahramonlar nutqida qo'llanilgan har bir ibora o'sha davr jamiyatining vaziyatlarini ochishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) Begmatov, E.A. O'zbek tili antroponimikasi. "Fan" nashriyoti, Toshkent – 2013.
- 2) Cho'lpon. Adabiyot nadur maqolasi, 1914-yil.
- 3) Cho'lpon. Kecha va kunduz. "Ilm-ziyo-zakovat", Toshkent – 2019.
- 4) Cho'lpon. Kecha va kunduz. "Sharq" nashriyot-matbaa konsernining tahririyati, Toshkent – 2000.
- 5) Dilmurod Qur'onov. Cho'lpon nasri poetikasi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, Toshkent – 2004.



- 
- 6) “Abdulhamid Cho‘lponning ‘Kecha va Kunduz’ romanidagi ijtimoiy-insoniy munosabatlar lisoniy tahlil obyekti sifatida” – Samxorfil.uz.
 - 7) “Kecha va Kunduz” asarining psixologik tahlili – Azkurs.org
 - 8) <https://hozir.org/nom-qoyish-sanati.html?page=10>
 - 9) <https://qomus.info>
 - 10) <https://shosh.uz>
 - 11) <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Mingboshi>
- 